

**KO'NGIL OCHAR MUHTASHAM****Savurova Mahliyo Xolbek qizi***Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali**Agrobiologiya fakulteti 2-bosqich talabasi**Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali*

Ko'ngil ochar muhtasham.

Juda qulay va shinam.

Aytsam senga, ey odam,

Bebaho bizning filial!

Talabalar bilimli.

Holatlar yo'qdir salbiy.

Tadbirlar turli - turli.

Betakror bizning filial!

Ustozlari jonkuyar.

Mehnat - la bilim berar.

Hamma o'qir barobar.

Muqaddas bizning filial!

Barcha o'simlik turi,

Tanga darmon har biri.

Bilguvchi buning siri,

Yagona bizning filial!

Dehqonmi u chorvador.

Paxtachi yo g'allakor.

Ne qilsaki kasbi kor.

Charog'bon bizning filial!

Har jabhada biz chaqqon.

Olgaymiz ilmu irfon.

Barchamiz yosh kitobxon.

Xazina bizning filial!

Ikki fakultet ahil.

Do'st, oshna, opa - singil.

Ey tinglovchi, shuni bil!

Farovon bizning filial!

Turli xil fan to'garak,

Qatnashishga biz sergak.

So'zim eshit, ey falak!

Zuhrodir bizning filial!

Ko'plab kelishar mehmon.

Ingliz, rus, ispan, yapon.  
Chorlar quchoq ochibon.  
Mehmondo'st bizning filial!  
    Aytsak ta'rif juda ko'p.  
    Ustoz ne aytsa, de xo'p.  
    Kiyingin talabadek bo'p.  
    Oltin davr bizning filial!  
Bag'riga bizni chorlar.  
O'tib ketar bu onlar.  
Bilib qo'ying, ey do'stlar!  
G'animat bizning filial!

Vatan

Vatanim senga she'r yozdim.  
Sirli qalam qo'limda.  
Suratingni ham chizdim.  
Doim mehring dilimda.  
    Qachonki qalam olsam,  
    Ko'z oldimda turasan.  
    Qachonki qo'shiq aytsam,  
    Dilimda sen bo'lasan.  
Ba'zilar hayron bo'lib,  
Vatan ne? - deb so'raydi.  
Hatto qushlar jo'r bo'lib,  
Vatan haqida kuyladi.  
    Vatanning har harfida,  
    Hamma narsa mujassam.  
    Baxtli qizing bo'larman  
    Bir harfingga arzisam.

Eng ulug' zot

Dunyoni go'zali kim ? - deb so'rashsa,  
Oq yuvib, taragan mushfikginamdir.  
O'ylamay javobim aytardim zaxot,  
Bu inson mushtipar, munis onadir.  
Bolam qachon kelar? debon yo'l poylar.  
Nigoron yo'llarga ko'zlari zordir.  
Baloyu kazodan asrab, avaylar.

Bu inson mexrubon, g'amxo'r onadir.  
Ertadan kechgacha yelib, yugurar.  
Issiq non yopay deb, qorar u xamir.  
Bolamy esin debon taom tayyorlar.  
Mexnatkash bu inson, aziz onadir.  
Og'rib qolsa gar biron joyimiz,  
Ming marta ox urar, ming joyi og'rir.  
Xasta joni o'ziga xech xam ko'rinsiz.  
Bolasin o'ylagan ul zot onadir.  
Yangi libos kiydirib xavasda qarar.  
Jigarin axvoli bo'lsa gar og'ir.  
Ming marta o'libon qayta tirilar.  
Bu jonkuyar inson, dilkash onadir.  
Xamisha duoga ochar u qo'lin,  
G'animat dunyoda bo'lsada g'ofil.  
Ox urmay bir bora demas u jonim  
o'z dardin yashirgan ul zot - onadir.  
Qarog'im, bolam der, erkalab bizni.  
Muloyim so'zlarin aytar u bir - bir.  
Deydilar bexuda ishlatmang tilni.  
Tildan chikar yaxshiyu yomon so'z axir.  
Ey aziz do'stlarim, sizlarga aytay!  
Qadrlang, ul zotni asrab avaylang.  
Eng oxir pushaymon bu'lib siz kolmay,  
Xurmatda bo'lingiz, mexrdan tolmang.  
Dunyoning go'zali kim? - deb so'rashsa,  
Oq yuvib, taragan mushfikginamdir.  
O'ylamay javobim aytardim zaxot,  
Bu inson mushtipar munis onadir.